

ISSN

INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER

p-ISSN 2992-9229
e-ISSN 3060-5318



TURKOLOGIK TADQIQOTLAR


Xalqaro ilmiy jurnal

2025 №1
(6)

Samarqand-2025

p-ISSN 2992-9229

e-ISSN 3060-5318



TURKOLOGIK TADQIQOTLAR


XALQARO ILMIY JURNALI

“TURKOLOGICAL RESEARCH” INTERNATIONAL SCIENTIFIC
JOURNAL

ULUSLARARASI “TÜRKOLOJİ ARAŞTIRMALARI” DERGİSİ
МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ “ТЮРКОЛОГИЧЕСКИЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ”



Jurnal rasmiy sayti: <https://turklogiya.samdu.uz/>



SAMARQAND – 2025



“TURKOLOGIK TADQIQOTLAR” XALQARO ILMIY JURNALI

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL “TURKOLOGICAL RESEARCH”
ULUSLARARASI “TÜRKOLOJİ ARAŞTIRMALARI” BİLİMSEL DERGİSİ
МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ “ТЮРКОЛОГИЧЕСКИЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ”**

Bosh muharrir:	Bosh muharrir o‘rinbosari:
Juliboy ELTAZAROV <i>ff.d., professor (O‘zbekiston)</i>	Roxila RUZMANOVA <i>f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)</i>

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Rustam XALMURADOV – t.f.d., professor, Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti rektori (O‘zbekiston); Hakim XUSHVAQTOV – f.m.f.d., professor, Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori (O‘zbekiston); Akmal AHATOV – t.f.d., professor, Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti xalqaro hamkorlik bo‘yicha prorektori (O‘zbekiston); Muslihiddin MUHIDDINOV – f.f.d., professor (O‘zbekiston); Ibodulla MIRZAYEV – f.f.d., professor (O‘zbekiston); Shuhrat SIROJIDDINOV – f.f.d., professor (O‘zbekiston); Suyun KARIMOV – f.f.d., professor (O‘zbekiston); Murodqosim ABDIYEV – f.f.d., professor (O‘zbekiston); Azamat PARDAYEV – f.f.d., professor (O‘zbekiston); Musa YULDASHEV – f.f.n., professor (O‘zbekiston); Dilfuza DJURAKULOVA – t.f.n., professor (O‘zbekiston); Aftondil ERKINOV – f.f.d., professor (O‘zbekiston); Hotam UMUROV – f.f.d., professor (O‘zbekiston);	Qosimjon SODIQOV – f.f.d., professor (O‘zbekiston); Muhabbat QURBONOVA – f.f.d., professor (O‘zbekiston); Mardon BOLTAYEV – dotsent (O‘zbekiston); Ali AKAR – f.f.d., professor (Turkiya); Abduselam ARVAS – f.f.d., professor (Turkiya); Funda TOPRAK – f.f.d., professor (Turkiya); Musa Shamil YUKSEL – f.f.d., professor (Turkiya); Temur KOJAO‘G‘LI – f.f.d., professor (AQSH); Hayrunnisa ALAN – f.f.d., professor (Turkiya); Varis CHAKAN – f.f.d., professor (Turkiya); Almaz ULVI – f.f.d., professor (Ozarbayjon); Emrah YILMAZ – Phd, dotsent (Turkiya); Foziljon SHUKUROV – Phd, dotsent (O‘zbekiston); Dilshod XURSANOV – Phd, dotsent (O‘zbekiston); Shahnoza XUSHMURODOVA – Phd, dotsent (O‘zbekiston); Dinara ISLAMOVA – Phd, dotsent (O‘zbekiston); Feruza JUMANIYAZOVA – Phd, dotsent (O‘zbekiston); Istoda RASULOVA – Phd, dotsent (O‘zbekiston); Feruza MANUKYAN – Phd (O‘zbekiston); Mas’ul muharrir: PhD, dotsent Zokir BAYNAZAROV (O‘zbekiston); Texnik xodim: Raxmatulla SHOKIROV (O‘zbekiston).
--	---



“TURKOLOGIK TADQIQOTLAR”

XALQARO ILMIY JURNALI

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL OF “TURKOLOGICAL RESEARCH”

ULUSLARARASI “TÜRKOLOJİ ARAŞTIRMALARI” BİLİMSEL DERGİSİ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ “ТЮРКОЛОГИЧЕСКИЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ”

Главный редактор:

Жулибай ЭЛАЗАРОВ
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Заместитель главного редактора:

Рохила РУЗМАНОВА
к.ф.н., доцент (Узбекистан)

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Рустам ХАЛМУРАДОВ – д.т.н., профессор, ректор Самарканского государственного университета имени Ш.Рашидова (Узбекистан);

Хаким ХУШВАКТОВ – д.ф-м.н., профессор, проректор по научной работе и инновациям Самарканского государственного университета имени Ш.Рашидова (Узбекистан);

Акмал АХАТОВ – д.т.н., профессор, проректор по международному сотрудничеству Самарканского государственного университета имени Ш.Рашидова (Узбекистан);

Муслихиддин МУХИДДИНОВ – д.ф.н., профессор (Узбекистан);

Ибодулла МИРЗАЕВ – д.ф.н., профессор (Узбекистан);

Шухрат СИРОЖИДДИНОВ – д.ф.н., профессор (Узбекистан);

Суюн КАРИМОВ – д.ф.н., профессор (Узбекистан);

Муродкасим АБДИЕВ – д.ф.н., профессор (Узбекистан);

Азамат ПАРДАЕВ – д.ф.н., профессор (Узбекистан);

Муса ЮЛДАШЕВ – к.ф.н., профессор (Узбекистан);

Дилфузаджурракулов – к.и.н., доцент (Узбекистан);

Афтондил ЭРКИНОВ – д.ф.н., профессор (Узбекистан);

Касимжон СОДИКОВ – д.ф.н., профессор (Узбекистан);

Хотам УМУРОВ – д.ф.н., профессор (Узбекистан);

Мухаббат КУРБАНОВА – д.ф.н., профессор (Узбекистан);

Мардон БОЛТАЕВ – доцент (Узбекистан);

Али АКАР – д.ф.н., профессор (Турция);

Абдуслам АРВАС – д.ф.н., профессор (Турция);

Фунда ТОПРАК – д.ф.н., профессор (Турция);

Муса Шамиль ЮКСЕЛЬ – д.ф.н., профессор (Турция);

Темур КОДЖАОГЛУ – д.ф.н., профессор (США);

Хайрунниса АЛАН – д.ф.н., профессор (Турция);

Варис ЧАКАН – д.ф.н., профессор (Турция);

Алмаз УЛЬВИ – д.ф.н., профессор (Азербайджан).

Эмрах ЙИЛМАЗ – PhD, доцент (Турция);

Фозилжон ШУКУРОВ – PhD, доцент (Узбекистан);

Дилшод ХУРСАНОВ – PhD, доцент (Узбекистан);

Шахноза ХУШМУРОДОВА – PhD, доцент (Узбекистан);

Динара ИСЛАМОВА – PhD, доцент (Узбекистан);

Феруза ДЖУМАНИЯЗОВА – PhD, доцент (Узбекистан);

Истода РАСУЛОВА – PhD, доцент (Узбекистан);

Феруза МАНУКЯН – PhD (Узбекистан);

Ответственный редактор: PhD, доцент Зокир **БАЙНАЗАРОВ** (Узбекистан)

Технический персонал: Рахматулла ШОКИРОВ (Узбекистан)



“TURKOLOGIK TADQIQOTLAR”

XALQARO ILMIY JURNALI

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL OF “TURKOLOGICAL RESEARCH”
ULUSLARARASI “TÜRKOLOJİ ARAŞTIRMALARI” BİLİMSEL DERGİSİ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ “ТЮРКОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ”

Chief Editor:/ Deputy Chief Editor:

*Prof. Dr. Juliboy ELTAZAROV (Uzbekistan)
Ass. Prof. Dr. Rokhila RUZMANOVA (Uzbekistan)*

Baş Editör:/ Baş Editör Yardımcısı:

*Prof. Dr. Juliboy ELTAZAROV (Özbekistan)
Doç. Dr. Rohila RUZMANOVA (Özbekistan)*

EDITORIAL TEAM:/ BİLİM KURULU:

*Prof. Dr. Rustam KHALMURADOV – Rector of Samarkand State University named after Sh.Rashidov (Uzbekistan);
Prof. Dr. Hakim KHUSHVAKTOV – Vice-Rector for Research and Innovation, Samarkand State University named after Sh.Rashidov (Uzbekistan);
Prof. Dr. Akmal AKHATOV – Vice-Rector for International Cooperation of Samarkand State University named after Sh.Rashidov (Uzbekistan);
Prof. Dr. Muslihiddin MUKHIDDINOV (Uzbekistan)
Prof. Dr. Ibodulla MIRZAEV (Uzbekistan);
Prof. Dr. Shukhrat SIROJIDDINOV (Uzbekistan);
Prof. Dr. Suyun KARIMOV (Uzbekistan);
Prof. Dr. Murodkasim ABDIEV (Uzbekistan);
Prof. Dr. Azamat PARDAEV (Uzbekistan);
Prof. Dr. Musa YULDASHEV (Uzbekistan);
Ass. Prof. Dr. Dilfuza DJURAKULOVA (Uzbekistan);
Prof. Dr. Aftondil ERKINOV (Uzbekistan);
Prof. Dr. Kasimjon SODIKOV (Uzbekistan);
Prof. Dr. Khotam UMUROV (Uzbekistan);
Prof. Dr. Muhabbat KURBANOVA (Uzbekistan);
Ass. Prof. Mardon BOLTAEV (Uzbekistan);
Prof. Dr. Ali AKAR (Turkey);
Prof. Dr. Abduselam ARVAS (Turkey);
Prof. Dr. Funda TOPRAK (Turkey);
Prof. Dr. Musa Shamil YUKSEL (Turkey);
Prof. Dr. Temur KOJAOGLU (USA);
Prof. Dr. Hayrunnisa ALAN (Turkey);
Prof. Dr. Varis CHAKAN (Turkey);
Prof. Dr. Almaz ULVI (Azerbaijan);
Ass. Prof. PhD. Emrah YILMAZ (Turkey);
Ass. Prof. PhD. Foziljon SHUKUROV (Uzbekistan);
Ass. Prof. PhD. Dilshod KHURSANOV (Uzbekistan);
Ass. Prof. PhD. Shakhnoza KHUSHMURODOVA (Uzbekistan);
Ass. Prof. PhD. Dinara ISLAMOVA (Uzbekistan);
Ass. Prof. PhD. Feruza JUMANIYAZOVA (Uzbekistan);
Ass. Prof. PhD. Istoda RASULOVA (Uzbekistan);
PhD. Feruza MANUKYAN (Uzbekistan);
Managing editor: Ass. Prof. PhD. Zokir BAYNAZAROV (Uzbekistan)
Technical staff: Rakhmatulla SHOKIROV (Uzbekistan)*

*Prof. Dr. Rustam HALMURADOV – Ş.Raşidov adına Semerkant Devlet Üniversitesi Rektörü (Özbekistan);
Prof. Dr. Hakim HUŞVAKTOV – Ş.Raşidov adına Semerkant Devlet Üniversitesi Araştırma ve İnovasyondan Sorumlu Rektör Yardımcısı (Özbekistan);
Prof. Dr. Akmal AHATOV – Ş.Raşidov adına Semerkant Devlet Üniversitesi Uluslararası İşbirliğinden Sorumlu Rektör Yardımcısı (Özbekistan);
Prof. Dr. Muslihiddin MUHİDDİNÖV (Özbekistan);
Prof. Dr. İbodulla MİRZAYEV (Özbekistan);
Prof. Dr. Şuhrat SİROCİDDİNÖV (Özbekistan);
Prof. Dr. Suyun KARİMOV (Özbekistan);
Prof. Dr. Murodkasim ABDİYEV (Özbekistan);
Prof. Dr. Azamat PARDAYEV (Özbekistan);
Prof. Dr. Musa YULDAŞEV (Özbekistan);
Doç. Dr. Dilfuza CURAKULOVA (Özbekistan);
Prof. Dr. Aftondil ERKİNÖV (Özbekistan);
Prof. Dr. Kasimcon SODİKOV (Özbekistan);
Prof. Dr. Hotam UMUROV (Özbekistan);
Prof. Dr. Muhabbat KURBANOVA (Özbekistan);
Doç. Dr. Mardon BOLTAYEV (Özbekistan);
Prof. Dr. Ali AKAR (Türkiye);
Prof. Dr. Abdusalem ARVAS (Türkiye);
Prof. Dr. Funda TOPRAK (Türkiye);
Prof. Dr. Musa Şamil YÜKSEL (Türkiye);
Prof. Dr. Timur KOCAOĞLU (ABD);
Prof. Dr. Hayrunnisa ALAN (Türkiye);
Prof. Dr. Varis ÇAKAN (Türkiye);
Prof. Dr. Almaz ÜLVİ (Azerbaycan);
Doç. Dr. Emrah YILMAZ (Türkiye);
Doç. Dr. Fozilcon ŞUKUROV (Özbekistan);
Doç. Dr. Dilşod HURSAVOV (Özbekistan);
Doç. Dr. Şahnoza HUŞMURODOVA (Özbekistan);
Doç. Dr. Dinara İSLAMOVA (Özbekistan);
Doç. Dr. Feruza CUMANIYAZOVA (Özbekistan);
Doç. Dr. Istoda RASULOVA (Özbekistan);
Dr. Feruza MANUKYAN (Özbekistan);
Sorumlu Editör: Doç., Dr. Zokir BAYNAZAROV (Özbekistan)
Teknik Personel: Rahmatullah ŞOKİROV (Özbekistan)*

MUNDARIJA | CONTENT | İÇERİK | СОДЕРЖАНИЕ

TURKIY XALQLARNING IJTIMOIY-MADANIY ALOQALARI TARIXI

Emrah YILMAZ

ÖZBEKİSTAN'IN KÜRESEL BAŞARILARINA SOSYOKÜLTÜREL BİR YAKLAŞIM VE
2024 YILININ ANALİZİ 8

МУСАЕВ Даинат Муса оглы

ЗНАЧЕНИЕ ОТНОШЕНИЙ АЗЕРБАЙДЖАНА С УЗБЕКИСТАНОМ ДЛЯ
ОБЪЕДИНЕНИЯ ТЮРКСКОГО МИРА 21

Xurshid Sirojiddinovich JUMANAZAROV

TURKISTON O'LKASIDA MUSTAMLAKA TIBBIYOTINI O'R NATISHDAGI IJTIMOIY
MUAMMOLAR 28

Ülkər HƏSƏNOVA

1926-CI İL İ TÜRKOLOJİ QURULTAYIN TARİXİ ƏHƏMİYYƏTİ 34

Türkan MAHMUDZADƏ

TÜRKOLOJİ QURULTAYIN TÜRKÇÜLÜYÜN İNKİŞAFINDA ROLU 43

RAHMONOVA Parvina

HINDİSTON HUKMDORLARINING SAMARQANDGA TUHFASI 52

TURK DUNYOSI TADQIQOTLARI

Baxtiyor ABDUSHUKUROV

KUL TIGIN BITIGTOSHI VA O'ZBEK TILI SHEVALARI 59

Tagandurdy BEKJAYEV

TÜRMEN DİLİNDE TAKVİMLE İLGİLİ KİŞİ ADLARI 66

ALLAMBERGENOVA Muqaddas Ruslanovna

O'RXUN-ENASOY OBİDALARI LEKSİK QATLAMINING HOZIRGI O'ZBEK ADABIY
TILI FONETIK-SEMANTIK TİZİMİDA AKS ETİSHİ 72

SHUKUROV Ahad Axmatovich

ARXAIZMLARNING LINGVO-USLUBIY IMKONIYATLARI 81

BARZIYEV Oybek Xabibullayevich

ANDIJON ZILZILASI TAFSIOTLARIGA BAG'ISHLANGAN AN'ANAVIY SHE'RIY
ASARLAR TAHLILI 90

MAMAJONOV Muhammadjon, OMONIDDINOVA Durdonaxon

PRAGMALINGVISTIKA VA TILSHUNOSLIKDA KO'P MA'NOLILIK MUAMMOSI 96

KARIMOVA Dilafro'z Obidjonovna

AKADEMIK AHMADALI ASQAROVNING YETUK ARXEOLOG SIFATIDA
SHAKLLANISH YO'LI 102

DJUMAMURATOV Kuanishbay

INGLIZ VA QORAQALPOQ TILLARIDAGI KOLORATIV BIRLIKLI FRAZEOLOGIZM-
LARNING KOMPONENTLI TAHLILI 113

Aynur CƏFƏROVA

AZƏRBAYCAN VƏ TÜRKİYƏ TÜRKCƏLƏRİNİN TERMINOLOGİYASINİN
INKİŞAFINDA BİRİNCİ TÜRKOLOJİ QURULTAYIN ROLU 122

Nərmin RƏHİMOVA

BİRİNCİ TÜRKOLOJİ QURULTAYDA ƏLİFBƏ VƏ DİL MÖVZULARI TÜRK
XALQLARININ ORTAQ PROBLEMİ KİMİ 131

Valida SHIKHALİYEVA

TÜRKOLOJİ QURULTAYDA ORTAQ DİL MƏSƏLƏSİ DÜNƏN VƏ BÜGÜN 139

ESHMIRZAYEV Bahodir Djurayevich, ISMOILOV Behruzjon Isroilovich

ANTROPONIMLARNING GRAMMATIK XUSUSIYATLARI..... 150

RO'ZIYEV QAHRAMON KUZİMURATOVİCH

O'ZBEK TILIDA “NON” KONSEPTINING LINGVOMADANIY TAHLILI..... 154

NABIYEVA Nodira Saidovna

LIRIKADA ILTIJO KONSEPTINI IFODALAYDIGAN JANRLAR 162

Nilufar NORPO'LATOVA

SAMARQANDNING TARIXIY NOMLARI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR 168

MELIBAYEVA Soxibaxon

O'ZBEK ANTROPONIMLARI PRETSEDENT BIRLIK SIFATIDA 176

RAHMATOVA Sevara Alisherovna

ESHQOBIL SHUKUR SHE'RLARIDA TAKRORNING MATN QISMLARINI BOG'LASHDAGI ROLI..... 183

AZIZ MUSHTARIY!

2025-yilda qadrli mushtariyalarini 1-soni bilan mammun qilgan “Turkologik tadqiqotlar” jurnali hay’ati sifatida, sharqona yangi yilimizning Turk dunyosi va butun insoniyat uchun tinchlik, farovonlik va muvaffaqiyatlarga to’la bo’lishini tilaymiz. Bu sonimizda “Turk dunyosi birligida O’zbekiston va Ozarbayjon aloqalarining ahamiyatti”, “Turkiy tillar va Ozarbayjon terminologiyasi rivojida birinchi turkologiya qurultoyining o’rni”, Turkman tilida taqvimlar bilan bog’liq shaxs ismlari”, “O’rxun-Enasoy obidalari leksik qatlamining hozirgi o’zbek adabiy tili fonetik-semantik tizimida aks etishi”, “Birinchi Turkologiya qurultoyida mushtarak alisbo va til mavzulari turkiy xalqlarning umumiy muammosi sifatida” kabi bir qator til, madaniyat, tarix, terminologiyaga oid mavzular kiritilgan. Qardosh mamlakatlardagi olimlarning turkologik tadqiqotlar haqida yozgan maqolalari va ilmiy faoliyatlar, xalqlarimiz o’rtasidagi aloqalarni mustahkamlovchi ko’prik vazifasini o’taydi. Umid qilamizki, turk dunyosida amalga oshirilayotgan tadqiqotlar natijalari soha mutaxassilari, doktorant va magistrantlar, yosh tadqiqotchilar uchun foydali bo’ladi...

TAHRIRIYAT

DEAR READER!

As the board of the journal "Turkological Studies," which pleased its valued subscribers with its first issue in 2025, we wish that our oriental new year will be full of peace, prosperity, and success for the Turkic world and all humanity. This issue includes several topics related to language, culture, history, and terminology, such as "The importance of relations between Uzbekistan and Azerbaijan in the unity of the Turkic world," "The role of the First Turkology Congress in the development of Turkic languages and Azerbaijani terminology," "Personal names associated with calendars in the Turkmen language," "Reflection of the lexical layer of Orkhon-Enasoy monuments in the phonetic-semantic system of the current Uzbek literary language," "Common alphabet and language topics as a common problem of the Turkic peoples at the First Turkology Congress." Articles and scientific activities of scientists from fraternal countries on Turkological studies serve as a bridge that strengthens ties between our peoples. We hope that the research results conducted in the Turkic world will be helpful for specialists in the field, doctoral and master's students, and young researchers...

EDITORIAL BOARD

SEVGİLİ OKUYUCU!

2025 yılının 1. sayısıyla siz değerli okurlarımızı memnuniyetle karşılayan “Türkolojik Araştırmalar” dergisinin yönetim kurulu olarak, Yeni Yılımızın Türk dünyası ve tüm insanlık için barış, refah ve başarılılarla dolu olmasını diliyoruz. Bu sayımızda, “Özbekistan-Azerbaycan İlişkilerinin Türk Dünyası Birliği Açısından Önemi”, “Türk Dilleri ve Azerbaycan Terminolojisinin Gelişiminde Birinci Türkoloji Kongresi’nin Rolü”, “Türkmen Dilinde Takvimlerle İlgili Kişi Adları”, “Orhun-Yenisey Abidelerindeki Sözvarlığı Katmanın Modern Özbek Edebi Dilinin Fonetik-Semantik Sistemine Yansımıası”, “Türk Halkların Genel Sorunu Olarak Birinci Türkoloji Kongresi’nde Ortak Alfabe ve Dil Konuları”, Özbekistan’ın Küresel Başarılarına Sosyokültürel Bir Yaklaşım ve 2024 Yılının Analizi” gibi dil, kültür, tarih ve terminolojiye ilişkin pek çok konu yer almaktadır. Kardeş ülkelerdeki bilim adamlarının Türkoloji araştırmaları konusundaki makaleleri ve bilimsel faaliyetleri halklarımız arasındaki bağları güçlendiren bir köprü görevi görmektedir. Türk dünyasında yapılan araştırma sonuçlarının alan uzmanlarına, doktora ve yüksek lisans öğrencilerine, genç araştırmacılara faydalı olmasını diliyoruz...

YAYIN KURULU

УВАЖАЕМЫЙ ЧИТАТЕЛЬ!

Редакция журнала «Тюркологические исследования», радующая своих читателей первым номером в 2025 году, желает, чтобы Восточный Новый год был полон мира, процветания и успехов для тюркского мира и всего человечества. В данный выпуск журнала включен ряд статей на темы, связанные с языком, культурой, историей и терминологией, в частности, «Значение отношений Узбекистана и Азербайджана в единстве тюркского мира», «Роль Первого тюркологического съезда в развитии тюркских языков и азербайджанской терминологии», «Личные имена в туркменском языке, связанные с календарём», «Отражение лексического пласта Урхун-Енисейских памятников в современной фонетико-семантической системе узбекского литературного языка», «Общий алфавит и языковые темы на Первом тюркологическом съезде как общая проблема тюркских народов». Научные статьи по тюркологическим исследованиям и деятельность ученых из братских стран служат мостом, укрепляющим связи между нашими народами. Мы надеемся, что результаты исследований в тюркском мире будут полезны специалистам, докторантам и магистрантам, молодым исследователям...

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИИ

ARXAIZMLARNING LINGVO-USLUBIY IMKONIYATLARI

SHUKUROV Ahad Axmatovich,

Termiz davlat universiteti

O‘zbek tili kafedrasi dotsenti, PhD

(Termiz, O‘zbekiston)

E-mail: shukurov@tersu.uz

ORCID: 0009-0009-5931-9722

 DOI: <https://doi.org/10.59251/3060-5318.2025.v1.138.1.3352>

Annotatsiya: Tilshunoslikda eskirgan leksemalar, yangi leksemalar va zamonaviy leksemalar mavjud. Jumladan, o‘zbek tili leksikasini tarixiylik nuqtayi nazaridan uchta asosiy qatlamga bo‘lib o‘rganish mumkin: 1) zamonaviy leksika; 2) eskirgan leksika; 3) yangi leksika. Bunday lug‘aviy birliklar orasida eskirgan so‘zlar alohida ajralib turadi. Eskirgan so‘zlar tilning muayyan davrlari uchun xos bo‘lib, asosan, badiiy asarlarda ma’lum davrga xoslikni ifodalash maqsadida qo‘llaniladi. Bu birliklarning barchasi tilda, xususan, badiiy asar tilida o‘ziga xos vazifa bajaradi. Bu kabi so‘zlardan yozuvchilar tarixiy voqeа-hodisalarни real tasvirlash uchun, asarda tarixiylik rangi berish uchun foydalanadilar. Mazkur maqolada arxaizmlar va ularning tarixiy dostonlar (“Ming bir yog‘du”, “Afrosiyob”, “Hakim va ajal” va “Shiroq”)da bajargan lingvo-uslubiy imkoniyatlarini yoritib berish borasida izlanishlar olib borilgan.

Kalit so‘zlar: *arkaizm, eskirgan leksika, leksik imkoniyatlar, neologizm, tarixiy dostonlar, uslubiyat, yangi leksika, zamonaviy leksika.*

ARCHAİZMLERİN DİSEL-ÜSTLÜK POTANSİYELİ

Özet: Dilbilimde, kullanılmayan sözlükler, yeni sözlükler ve modern sözlükler gibi terimler vardır. Özellikle Özbek dilinin söz varlığı tarihsel açıdan üç ana katmanda incelenebilir: 1) Çağdaş söz varlığı; 2) güncelliğini yitirmiş kelime dağarcığı; 3) Yeni kelime bilgisi. Bu tür sözcük birimleri arasında artık kullanılmayan sözcükler ön plana çıkmaktadır. Kullanılmayan sözcükler dilin belli dönemlerine özgüdür ve daha çok sanat eserlerinde belli bir dönemin özgünlüğünü anlatmak için kullanılır. Bütün bu birimler dilde, özellikle de bir sanat yapınının dilinde belirli bir işlevi yerine getirirler. Yazarlar, tarihi olayları gerçekçi bir şekilde anlatmak ve esere tarihi bir hava katmak için bu tür sözcükleri kullanırlar. Bu makale tarihî destanlardaki (“Ming bir yog‘du”, “Afrosiyob”, “Hakim va ajal” ve “Shiroq”) arkaizmleri ve bunların dilsel ve üslupsal potansiyellerini araştırmaktadır.

Anahtar kelimeler: *arkaizm, güncelliğini yitirmiş sözcük dağarcığı, sözcüksel olanaklar, yeni sözcük türetme, tarihi destanlar, metodoloji, yeni sözcük dağarcığı, modern sözcük dağarcığı.*

LINGUISTICAL-STYLISTIC POTENTIAL OF ARCHAISMS

Abstract: In linguistics, archaic lexemes, new lexemes, and modern lexemes are distinguished. In particular, the lexicon of the Uzbek language can be studied from a historical perspective, dividing it into three main layers: 1) modern lexicon, 2) archaic lexicon, and 3) new lexicon. Among these lexical units, archaic words stand out. Archaic words are characteristic of specific periods of the language and are mainly used in literary works to express the specificity of a particular period. All these units perform a specific function in the language, especially in the language of literary works. Writers use such words to depict historical events realistically and give the work a historical flavor. This article explores the linguistic and stylistic possibilities of

archaisms and their role in historical epics ("Ming bir yog‘du", "Afrosiyob", "Hakim va ajal" and "Shiroq").

Key words: *archaism, archaic lexicon, lexical possibilities, neologism, historical epics, stylistics, new lexicon, modern lexicon.*

“Til – millatning ko‘zgusi”, – deydilar” (Тўра Сулаймон, 2013: 311). Bu ko‘zguning jilolari tildagi so‘z va iboralarda o‘z aksini topgan bo‘ladi. Hozirgi adabiy tildagi eskirgan leksemalar *eski* leksemalar, yangi leksemalarning jami *yangi* leksemalar, na eskirgan, na yangilik bo‘yog‘iga ega bo‘lgan so‘z *zamonaviy* leksemalar deb yuritiladi. Demak, o‘zbek tili leksikasini tarixiylik nuqtayi nazaridan uchta asosiy qatlamga bo‘lib o‘rganish mumkin:

1) *zamonaviy leksika*; 2) *eskirgan leksika*; 3) *yangi leksika* (Mengliyev, 2018: 180).

Bunday lug‘aviy birliklar orasida eskirgan so‘zlar alohida ajralib turadi. Eskirgan so‘zlar tilning muayyan davrlari uchun xos bo‘lib, asosan, badiiy asarlarda ma’lum davrga xoslikni ifodalash maqsadida qo‘llaniladi. Bu kabi so‘zlardan yozuvchilar tarixiy voqeа-hodisalarни real tasvirlash uchun, asarda tarixiylik rangi berish uchun foydalanadilar (Мирзаев, Усмонов, Пасулов, 1970: 44). Eskirgan so‘zlarning badiiy adabiyotdagi uslubiy vazifasi xilma-xildir. Eng avvalo, ulardan davrning tarixiy kollaritini yaratish uchun foydalaniladi. Bunday paytda eskirgan so‘zlar nafaqat qahramonlar nutqida, balki muallif tilida ham faol qo‘llanadi.

Tarixiylikni ifodalovchi eskirgan so‘zlar hozirda ham mavjud bo‘lgan tushunchalarni, shuningdek, o‘tmishdagi narsa, tushunchalarni ifodalashiga ko‘ra arxaik va tarixiy so‘zlarga bo‘linadi:

1. Arxaik so‘zlar. Arxaizmlar ma’nosiga ko‘ra leksik va semantik arxaizmlarga bo‘linadi. Leksik arxaizmlar bugungi kunda sinonimi bilan almashgan so‘zlardir. Tilda bugungi kunda ham mavjud, lekin qandaydir ma’nosи o‘zgargan yoki boshqa so‘zga almashgan so‘zlar semantik arxaizmlar sirasiga kiradi (Курбатов, 1978: 75).

Adabiy tilda eskirgan deb hisoblanuvchi vositalar lirik matnda ko‘pincha “yuqori” yoki “nozik” ma’no kuchiga ega bo‘lib, nutqiy matn qurilishida ekspressiv uslubiy vazifa bajaradi. Arxaizmlar bugungi kunda ham mavjud narsa va hodisalarning qadimiy nomi sanaladi. Ularning o‘rniga kelgan sinonimlar juda faol qo‘llanadi.

Eskirgan so‘zlarning katta qismini arxaizmlar tashkil qiladi. Ular she’riy matnda turli uslubiy vazifalarni bajarib keladi. Biz kuzatgan asarlarda *mag‘rib, mashriq, hamd, sano, quvvayi hofiza, solnoma, munajjim, hiroj, boj, harb, guftigu, foni, ifsho, rud, mustahiq, mutaassir, hoziq, fath, etmoq, zabon, shoyon, bitik, g‘azna, mirrix, zuhal, aso, shuarо, gaz* (*o‘lchov birligi*), *qatli om, tug‘, yalov, harbu zarb, hok, mashvarat, nisba, samar, zahhob, zarrabin, mutasaddi, rasadxona, shatranj, ilik, ilmu nujum, ilmu she‘r, ilmu tibilig, farmoni vojib, say‘i ijtixor, fotih* va boshqa arxaizmlar uchraydi. Ularning ayrimlariga to‘xtalib o‘taylik.

Zahob. Aslida, zahab. Arabchadan o‘zlashgan so‘z bo‘lib, *oltin, tilla* ma’nosini beradi. So‘zning “*zahob*” tarzida qo‘llanishi, birinchidan, uni poetiklashtirgan, ikkinchidan, bezangan, yasangan degan ma’nolarni ifodalash imkonini bergen. Masalan:

Zahob to‘tilar, tovuslar shohga yoqishini bilar edi... (“Ming bir yog‘du”).

Samar. Arabchadan o‘zlashgan so‘z. Mumtoz adabiyotimizda, jumladan, Alisher Navoiy asarlari tilida (Навоий асарлари лугати, 1972: 544) *meva, foyda, natija, mashhur, tanilgan* kabi ma’nolarni ifodalagan.

Tarixiy mavzudagi she’riy dostonlarda ham uning *samarali natija*, *yakun*, *xulosa* ma’nolarida kelishi kuzatiladi. *Iskandar olimlarni ikki guruhga kor ilmi*, *osmon ilmi bilan shug’ullanuvchilarga bo’ldi*, lekin ikkovidan bitta samar so ‘zladi (“Ming bir yog‘du”).

Xok. Tuproq ma’nosidagi forschanan o’zlashgan so‘z. Bu so‘z mumtoz adabiyotimizda, xususan, Alisher Navoiy asarlari tilida keng qo‘llangan va turli yasovchi qo‘shimchalar olib, xilma-xil uslubiy ma’nolarni ifodalagan. *Xokbus*, *xokvash*, *xokdin*, *xokiy*, *xokirah*, *xokistar*, *xoknishin*, *xokro ‘b*, *xokisor*, *xokisud* va boshqalar shular jumlasidandir (Навоий асарлари лугати, 1972: 658-659). Hozirgi o‘zbek she’riy dostonchiligidagi ham bu so‘z poetik mazmun kasb etib, muhim uslubiy vazifa bajaradi. U ko‘proq *xokipoy* (oyoq ostidagi tuproq) ma’nosini beradi. Masalan:

Sizning xokingizni surtib ko ‘zimga,
Sha’ningizga qo ‘ygum so ‘z ila haykal (“Afrosiyob”).

Harb. Arabchadan o’zlashgan bu so‘z *urush*, *jang* ma’nosini beradi. Dostonlarda bu so‘z *qat’iy*, *ayovsiz*, *qirg ‘in*, *jang* ma’nosini ifodalashga xizmat qilgan. Masalan:

Kechga qadar zavol etdi harbu zarb (“Afrosiyob”).

Tug’. Bu so‘z she’riy matnlarda *bayroq* ma’nosida keladi. Masalan:

Afrosiyob tug ‘in ko ‘targan Turon,
Davlatin so ‘ndimi aks sadosi? (“Afrosiyob”)

Qatli om. Qirg ‘in, yoppasiga o ‘ldirish ma’nosini beradi. Masalan:

Hoshim bu qal’ada bo ‘lsa gar shohid,
Qo ‘shinin qilmoqchi edi qatli om (“Afrosiyob”).

Bitik. Bu so‘z yozuv ma’nosini beradi. She’riy matnda u qo‘lyozmalar, kitoblar ma’nosida keladi. Masalan:

Uni ulug‘ bitiklarning zavoli urgay (“Hakim va ajal”).

Ushbu parchada “zavoli urgay” birikmasining tarkibidagi “zavol” arxaizmi ham poetiklashgan so‘zdir. Aslida, o‘zbek tilida *uvoli uradi* degan ibora bor. “Uvol” so‘zi arabcha *uvat* so‘zining o’zlashgan shaklidir. Yuqoridagi parchada kelgan “zavol” so‘zi ham arabchadan o’zlashgan bo‘lib, *yo ‘q bo ‘lish*, *so ‘nish*, *botish*, *pasayish* kabi ma’nolarni beradi. Tilimizda “zavol topmoq” iborasi ham bo‘lib, *yo ‘qolmoq*, *zarar ko ‘rmoq* ma’nosidadir. Yuqoridagi misolda “zavoli urgay” iborasi okkozional ma’no hosil qilgan.

Hoziq. Arabchadan o’zlashgan so‘z bo‘lib, *bilimdon*, *mohir*, *mahoratli*, *usta* ma’nolarini beradi.

Alisher Navoiyda “*Hoziq tabib*” birikmasi mavjud. “Hakim va ajal” dostonida “*Buxorolik hoziq hakim kelganmish deya*” degan misra bor. Bu yerda “*hoziq hakim*” birikmasi *nihoyatda bilimdon*, *tib ilmini yaxshi egallagan*, *qo ‘li yengil tabib* ma’nosini beradi.

Mutaassir. Poetik yuqori uslubda qo‘llanuvchi bu so‘z ham arabchadan o’zlashgan bo‘lib, ta’sirchanlik ma’nosini beradi. Masalan:

Bu tashrifdan mutaassir bo ‘lib nihoyat,
Boshin egib turar edi bir chetda hakim (“Hakim va ajal”).

Mustahiq. Sazovorlik ma’nosida keladi. Masalan:

Jazoga men mustahiqman amringizga shay (“Hakim va ajal”).

Ifsho. *Fosh etish*, *ochish*, *oshkora qilish* ma’nosidagi so‘z. She’riy matnda u o‘ziga xos ta’sirchan poetik mazmun kasb etadi. Masalan:

Bu – Buxoro Malikasin yurak ifshosi (“Hakim va ajal”).

Hamdu sano. Arabcha *hamd* va *sano* so‘zlarining birikuvidan hosil bo‘lgan. “*Hamd va sano*” Olloh taolo va payg‘ambar sha’niga aytilgan maqtovdir.

Mumtoz adabiyotda asarlar hamd va sano bilan boshlangan. Hozirgi paytda bu birikma umuman maqtov, madhiya, ba’zan esa (mansabdorlarga nisbatan qo‘llanganda) salbiy ma’nodagi maddohlik tushunchasini ifodalaydi. Masalan:

*Ular podshoga,
Yilda yigirma sakkiz bor.
Qaytarib aytilsa ham,
Eskirmaydigan hamdu sano,
Yozuv-yorliqlar,
Tayyor qilib qo ‘yadilar* (“Ming bir yog‘du”).

Arxaik so‘zlar qo‘llanilishi jihatidan an’anaviy bo‘lib, tarixiy so‘zlar esa muayyan tarixiy so‘z qo‘llanilgan davr aks ettirilayotgandagina qo‘llaniladi.

2. Tarixiy so‘zlar. Bular tarixda mavjud bo‘lib, endilikda yo‘q bo‘lib ketgan narsalar, voqeа-hodisalar, tushunchalar va boshqalarning nomlaridir. Tarixiy so‘zlar maxsus adabiyotlarda o‘tmish davrlardagi realiyalar nomi sifatida o‘ziga xos nominativ vazifa bajaradi. Shu bilan birga, ular o‘tmishni tasvirlashdagi imkoniyatlarining ko‘pligiga ko‘ra badiiy asar mualliflar e’tiborini o‘ziga jalb etadi. Shuningdek, eskirgan so‘zlar badiiy matnda kinoya qilish, kulgi qo‘zg‘atish maqsadlarida ham qo‘llanadi.

Tarixiy mavzudagi she’riy dostonlarda ularning yuqoridagi kabi xususiyatlari turli darajada yaqqol ko‘zga tashlanib turadi.

Avvalo shuni aytish kerakki, tarixiy mavzudagi asarlarda o‘tmish voqeа-hodisalarining tasvirida aniqlik, tabiiylik, tarixiy haqiqatni ifodalash va uni haqqoniy yoritishda tarixiy so‘zlarning o‘z o‘rni bor. Ular tarixiy voqeа-hodisa o‘tmish davrini tasvirlab berishning eng muhim lisoniy vositasidir. Tarixiy so‘zlarni ma’no anglatish jihatidan quyidagi turlarga bo‘lish mumkin:

1. Urug‘, qabila, elat va xalqlar nomini ifodalovchi, ya’ni antroponomik (Нафасов, 1988: 286) tarixiy so‘zlar. Bunday so‘zlar o‘tmishda mavjud bo‘lgan urug‘, qabila, el-elatlarning nomlari bo‘lib, ularning xarakter-xususiyatlari, harakat, holat ko‘rinishlari, yashash, ishlash, kurash tarzlari haqidagi ma’lumotlarni ko‘rsatishga xizmat qiladi. Masalan:

*Sug ‘diylar qo ‘lida yaraqladi tig’,
Hayot-mamot jangi boshlandi, yo rab!* (“Afrosiyob”)
Hushyorlik – yurak alangasini zardushtiylar kabi asramak.
(“Ming bir yog‘du”)

Shak yurtiga nur sochsin quyosh.

Sug ‘dlar bilan qondoshmiz azal. (“Shiroq”)

2. O‘tmishda mavjud bo‘lgan narsa, qurol-aslaha, buyum nomlari. Ular voqeа-hodisalarini tarixiy jihatdan aniq ifodalashga xizmat qiladi. *Kamon, tig ‘, nayza, qalqon, sipor,sovut, manjaniq, qilich, nayza* shular jumlasidandir. Masalan:

*Pahlavonlar nayza urishdi,
O ‘tkir tig ‘ni qaytarar sipar.* (“Shiroq”)
Manjaniqlar jangga kirdi beomon,
Domiga tortmoqchi misli ajdarho. (“Afrosiyob”)

Ba’zan bunday so‘zlar ko‘chma ma’noda qo‘llanib, turli badiiy tasvir vositalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Jumladan:

- a) o‘xshatish hosil qilishda qatnashadi: *Nayzadek sanchildi qalbimizda g‘am* (“Afrosiyob”);
b) metafora hosil qiladi: *Islom qilichidan bo‘yagan qonga* (“Afrosiyob”);
v) sinekdoxa hosil qiladi: *So‘l qanotda uch yuzta tig‘, kamon* (“Shiroq”);
g) mubolag‘ali tasvir yaratishda qo‘l keladi: *Yigitlarning qarashi keskir, Qaytaradi qilich damin ham* (“Gumbazdagi nur”);
d) ba’zan so‘z ko‘chma ma’noda qo‘llanib, bir-biriga qiyoslangan tushunchalarni ifodalaydi: “*Hokim! Deya aytilgan chog‘, Aks-sadoday yangraydi “qilich”*” (“Gumbazdagi nur”). Bu yerda hukmronlikning jang-u jadal, kuch bilan qo‘lga kiritilishi “hokim”, “qilich” so‘zlarining ko‘chma ma’nosini orqali ifoda topgan;

e) shuningdek, mualliflar so‘z yasash vositalaridan foydalanan yangi so‘z hosil qiladi:

Kiygan ekan Sovut, teri Shim,

Qonsiz emish tani, qattiq bez. (“Shiroq”)

3. O‘tmishda mavjud mansab, lavozimni bildiruvchi, ijtimoiy tabaqaga oid nomlar. Masalan: *amir, hokim, lashkar, xalifa, munajjim, shayx, shayxulislom, qozi, imom, kaniz, joriya, eshik og‘a, mirshab, vazir, sarkarda, nozir, umaro, mulozim, chopar, mirob, filbon, sarkor, sarbon, kamonchi, navkar, jig‘ador, nayzabardor, qalandar* va boshqalar.

4. Geografik o‘rin bilan bog‘liq eski nomlar: *muzofot, kent, viloyat* va boshqalar (Jo‘rayev, 2022: 48–55).

5. Joy, makon, boshipana, muassasa, dargohlarning eski nomlari: *qasr, qal‘a, madrasa, taxt, ark, registon* va boshqalar.

Bunday nomlar matnda turli uslubiy ma’nolarda keladi. Masalan, *qal‘a* so‘zi qatnashgan quyidagi ikki misraga e’tibor beraylik:

Lekin qal‘amizni zabit etdi arab...

Chol bilan qal‘ani etdim sayri bog‘,

Tanishday ko‘rindi menga odamlar. (“Afrosiyob”)

Birinchi misolda *qal‘a* so‘zi himoya qo‘rg‘oni ma’nosida, ikkinchi misolda *qasr, hashamatli bino* ma’nosida kelib, o‘ziga xos uslubiy ma’no kasb etgan.

Quyidagi misolda qasrlar so‘zi *shahar, aholi yashash nuqtalari, obod yuritlar* ma’nosida kelgan:

Qasrlarni kul qilibdilar,

Yosh go‘daklar yurganmish daydib. (“Shiroq”)

Ba’zan bunday so‘zlar ko‘chma ma’noda qo‘llanib, tasviriy ifoda kasb etadi.

Masalan:

Madrasalar mo‘ysafidsimon,

Ro‘paramda o‘qilar duo. (“Gumbazdagi nur”)

Bunday eski nomlar butunning qismini ham ifodalaydi va ular tasvirida aniqlik hosil qilishga xizmat etadi. Masalan, *qasr* va *qal‘a* nomlarining uzvlari quyidagicha:

Oshyona. Bu nom izohli lug‘atda fors-tojikchadan o‘zlashgan kitobiy va eskirgan so‘z ekanligi qayd etilgan (Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-жилд, 1981: 554). U *binoning yuqori qavati; yuqori qavatdagi xona* ma’nolarini beradi. “*Hakim va ajal*” dostonida “*Oshyonadan ko‘rinardi ravoqlar oliyi*” deyilgan. Bu yerda qasrnning mahobatli va ko‘rkam ekanligi ifoda etilgan.

Toqi ravoq. Aslida, *toqu ravoq.* “*O‘zganing toqu ravoqidan o‘zingning ayvoning yaxshi*”degan maqol ham bor. Bu har ikkala nom ham arabchadan o‘zlashgan so‘zlardir. *Toq –*

binoning eshigi, darvoza tepasidagi yarim doira shaklida ishlangan qismni bildiradi. She’riyatda *gumbaz* ma’nosida ham keladi. *Ravoq* deb binoning old tomonidagi peshtoq va ustunlar bilan bezatilgan qismiga aytildi. Shuningdek, nutqda *hashamatli bino; saroy, qasr* ma’nosida ham keladi. Yuqoridagi maqolda xuddi shu ma’noda qo’llanilgan. “Hakim va ajal” dostonida “*Boqar edi oy tamg’ali toqi ravoqqa*” kabi misra mavjud bo‘lib, bunda salobatli binoning hashamat va ko‘rki nazarda tutilgan.

Ark. Bu tarixiy so‘z ham fors-tojikchadan o‘zlashgan bo‘lib, *poytaxtdagi qasr; xon yoki amir saroyining mustahkamlangan qismi* va, shuningdek, *saroyning o‘zi ma’nolarini* bildiradi.

“Hakim va ajal” dostonida “*Buxoroning arkidan bir tong*” degan misra bor. Bu yerda “*ark*” *amir saroyi* ma’nosida kelgan.

Registon. Qadimiy shaharchilik madaniyatida *Registon* asosiy o‘rin tutgan. *Ubosh maydon* vazifasini o‘tagan deyish mumkin, turli tadbirlar, marosimlar shu yerda o‘tgan. Masalan, Samarqand shahri Registonida Ulug‘bek, Tillakori, Sherdor madrasalari joylashgan, oldi keng sahn. “Afrosiyob” dostonida “*Registon*” so‘zi bosh harf bilan yozilib, metonimik ma’no kasb etgan. Masalan:

Ko ‘z-ko ‘zlab qarshilar uni Registon.

Minora. Arabchadan o‘zlashgan so‘z. U biror binoga qo‘sib yoki alohida ko‘rilgan *mezana* (azon o‘qiladigan joy) shaklidagi baland inshootdir. Tarixiy mavzudagi she’riy dostonlarda bu nom tasvirni aniqlash vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, “Gumbazdagi nur” dostonida u ulug‘vorlik timsoli sifatida mubolag‘ali tasvir ifodasini bergen:

Minoralar “ko ‘k-baland”, degan

Lofchilarning og ‘ziga urar.

Tarixiy mavzudagi she’riy dostonlardagi tasvirlar o‘tmishdagi podsholik tuzumi davri bilan bog‘liq bo‘lgani uchun ularda taxtga oid mulohazalar, voqeа-hodisa tasvirlari keng o‘rin egallagan. Masalan:

Chodra ichra, taxt uzra zarrin,

Libos kiygan Doro o ‘tirar. (“Shiroq”)

Ko‘pgina o‘rinlarda bu so‘z “*taxtiravon*”, “*oliy taxtiravon*” kabi poetik holda ham qo’llanadi. Masalan:

Taxtiravon kelar lopillab,

Unda Doro, atrofda parda. (“Shiroq”)

Bir kun nogoh yo ‘llab oliy taxtiravonni... (“Hakim va ajal”)

Yuqoridagi misollardan ko‘rinadiki, birinchi o‘rinda “*taxt*” so‘zi rasmiy qabul va boshqa tantanali marosimlarda shoh o‘tirishi uchun to‘rda o‘rnatilgan, maxsus bezatilib, ishlangan joy, hashamatdor o‘rindiqning oti bo‘lsa, “*taxtiravon*” so‘zi esa oliy martabali shaxslar o‘tkazilib, yelkada olib yuriladigan usti berk, hashamador ko‘shk nomidir. Har ikkala so‘z ham fors-tojik tilidan o‘zlashgan. Bu so‘z ba’zan “*taxtu toj*” shaklida birikma hosil qiladi. Agar “*taxt*” shoh o‘tirishi uchun tayyorlangan “*hashamatdor o ‘rin*” nomi bo‘lsa, “*toj*”deb shohlarning hukmronlik ramzi bo‘lgan, qimmatbaho toshlar qadalgan ziynatlari bosh kiyimga aytildi. Har ikkalasi birikib, *sultanat, siyosat, davlat, hokimlik* ma’nolarini ifodalaydi. Masalan:

Taxtu toj birorda topmadi qo ‘nim,

Donayu qotilni ko ‘rdi bu dunyo. (“Afrosiyob”)

Ba’zan xuddi shu sultanat *podsholik, hukmronlik, davlat* ma’nosida “*taxt*” so‘zining o‘zi ham kela oladi. Masalan:

Amir Temur fotih, o ‘shal on.

Taxtdan ham kechardi hatto! (“Gumbazdagi nur”)

Tarixiy mavzudagi she’riy asarlar matnida uchraydigan qurol-asлаha nomlarini anglatuvchi ma’nodosh so‘zlar ko‘chma ma’nolarda ham keladi. Masalan:

Payt poylashib aylanishardi,

Qilich bilan shaylanishardi. (“Shiroq”)

Kuhakka qo ‘shinlar keldi ro ‘baro ‘,

Muzaffar shamshirin ko ‘tardi sardor. (“Afrosiyob”)

Boshin tutib shamshirga... (“Toj mahal”)

Yuqoridagi misolning birinchisida “qilich” so‘zi o‘z ma’nosida, ikkinchi o‘rinda g‘oliblik timsoli ma’nosida, uchinchi o‘rinda fidoyilik, vatanga sadoqat, uning uchun qurban bo‘lishga tayyorlik, jangovarlik ma’nolarida kelgan.

Shunday qilib, hozirgi o‘zbek adabiyotida tarixiy mavzudagi she’riy dostonlar tilida eskirgan so‘zlar muhim uslubiy vosita sifatida qo‘llanadi. Ular: a) poetik mazmun kasb etadi; b) tarixiylik mazmunini beradi; d) ma’noni aniqlashtirishga xizmat qiladi; e) nutq ta’sirchanligini kuchaytiradi; f) nutq mazmuniga tabiiy ohang beradi; g) ular ko‘chma ma’nolarda qo‘llanib, turli she’riy san’atlar hosil qilishga, ohangdorlikni oshirishga xizmat qiladi; h) shoirning so‘z qo‘llashdagi mahoratini ko‘rsatadi.

Tarixiy so‘zlar o‘tmishda o‘zbek xalqi qanday qurollardan foydalanganini, qanday ijtimoiy-sinfiy munosabatlar va tushunchalar mavjud bo‘lganini aniqlashda yordam beradi (Мирзаев, Усмонов, Расулов, 1970: 45). Bunday so‘zlar tarixiy asarlarda asar mazmunini ochib berishda muhim uslubiy vazifa bajarishga xoslangan bo‘ladi. Masalan, “Shiroq” dostonida ko‘chmanchi chorvador qabila va urug‘larning turmush tarzini ifodalovchi *qimiz, qazi, “gala botir”, suzma, qurut, pishloq, et, qoramol, yut, kuvi, qo ‘chqor, taka, qulun, yaylov, xurjun, tayoq, cho ‘pon, chorvachi, o ‘tov* kabi ko‘plab chorvachilikka oid so‘z va iboralar qo‘llanilgan. Mazkur so‘zlar o‘tmish davrda yashagan qadimiylar o‘zbek urug‘lari va qabilalarning hayoti, turmush tarzini, ijtimoiy munosabatlarini ifodalashga xizmat qilgan va ulardan badiiy asarlarda unumli foydalanish tarixiy voqealarni to‘g‘ri ifodalash qo‘l kelgan. Bu kabi so‘zlarni B.To‘ychiboyev hamda Q.Qashqirli “Zominning til qomusi” asarida “Eliboy atamalari” deb nomlaydi va shunday deb yozadi: “Bu so‘zlarning kattagina qismi adabiy tilimizda ishlatilmaydi. Eliboylar tilini bilmagan odam birgina so‘z yoki atama orqali ifodalash mumkin bo‘lgan mazmunni berish uchun ba’zan butun boshli bir bet izoh yozishi lozim bo‘ladi. Shunda ham ifoda aniq bo‘lmaydi. Shuning uchun o‘zbek adabiy tili bunday so‘z va atamalarga, zominliklar aytmoqchi, astoydil olarmon bo‘lishi hayotiy zaruratdir” (Тўйчибоев, Қозоқбой Қашқирли, 2012: 216-238). Bunday so‘zlar xalqning turmush-tarziga to‘la singib ketganligi uchun tarixiy mavzudagi asarlarda ulardan unumli foydalanish muayyan davrda yashagan odamlar hayotini real tasvirlashga imkon beradi.

Asarda hatto daraxt, o‘t-o‘lan, ko‘kat nomlari ham tarixiylik va qahramonlarning xarakter xususiyatlarini haqqoniy yoritishda o‘ziga xos uslubiy vazifa o‘taydi. Masalan, keksa cho‘pon Shiroqqa dushman bilan kurash yuzasidan maslahat berar ekan, shunday deydi:

Dushman yo ‘lin qizil qumga sol,

Yantoq tomon burma, quduq bor;

Saksovulga hayda, bu yo ‘l – shon. (Mirmuhsin, “Shiroq”)

Ko‘rinadiki, ushbu nutq parchasida keksa cho‘ponning tajribaliligi, bilimdonligi, sahro tabiatini yaxshi bilishi *qizil qum, yantoq, quduq, saksovul* leksemalari yordamida o‘zining chiroyli ifodasini topgan. Demak, cho‘lda o‘simliklarning o‘sishiga qarab ham shart-sharoitni aniqlash

mumkin. Bunda sinchkov ko‘z bo‘lmasa, kishi pand yeishi mumkin. Tahlillarimiz shuni ko‘rsatadiki, tarixiy dostonlarda bunday so‘zlardan ko‘p va o‘rinli foydalanilgan.

Masalan, A.Oripovning “Hakim va ajal” dostonida *ark, chopar, mirzo, jilovdor, karvonsaroy, saroy*; B.Boyqobilovning “Afrosiyob” dostonida *ko‘hak¹, qog‘i; Muhammad Alining “Gumbazdagi nur”* dostonida *maqbara, madrasa, taxt, gumbaz, naqqosh, gilkor, ganchkor, koshintarosh, naykamalak* kabi leksik birliklardan mohirlik bilan foydalanilgan. Ular asarda tarixiy voqealarni gavdalantirishda yordamlashgan va ayni chog‘da muhim ashyoviy dalillar bo‘lib xizmat qilgan.

Tarixiy dostonlarda real holatni yuzaga chiqarish uchun asar qahramonlari va ularning hatti-harakatlarini tasvirlash yetarli bo‘lmaydi. Badiiy timsollar asarning markaziy nuqtasi sanaladi va ularni to‘ldirish uchun hamisha qo‘sishma ma’lumotlar talab etiladi. Bunday ma’lumotlar esa tildagi mavjud leksemalar vositasida yuzaga chiqariladi.

“Shiroq” dostonida *qizilqum, yantoq, saksovul* kabi so‘zlar cho‘l haqidagi tushunchani shakllantiradi. Cho‘l esa dushman qo‘sishinlarini halokatga olib boruvchi maskan sifatida dostonda alohida diqqatni jalgan etuvchi detaldir.

Insonning kamoloti san’at va madaniyat bilan bog‘liq. Shuning uchun kishilik jamiyatlarning barcha davrlarida san’at va madaniyatga oid atamalar inson nutqidagi kundalik hayot tushunchalarini ifodalovchi so‘zlar sifatida qo‘llanib kelingan. Atamalarning katta qismi til tarixi bilan bog‘liq va ular o‘zlarida xalq madaniyati, urf-odatini yaqqol namoyon qiladi. Masalan, *uloq, ko‘pkari, olish (kurash)* kabi atamalar xalq tomoshalari bilan bog‘liq bo‘lib, mazkur so‘zlar negizida kuchlilik, chaqqonlik, epchillik semalari yashirinib yotadi Yuqoridagi so‘zlar bilan parallel ravishda vujudga kelgan *polvon, davra, chopag‘on, chopqir (ot), bakovul, halol* kabi leksik birliklar xalq hayotining negizini tashkil qiladi. Shu boisdan ham bunday atamalar badiiy asarlarda ko‘p uchraydi. Xalq tomosha san’ati atamalari o‘zbek tili taraqqiyotining ilk davrlaridan boshlab qo‘llanib kelingan va tarixiy mavzudagi asarlarda ham ularga keng o‘rin beriladi. Jumladan, Mirmuhsinning “Shiroq” tarixiy dostonida *chavandoz, uloq, maydon, kurash, polvon, beltutish, yiqit, zo‘r, alp* va boshqa so‘zlardan unumli foydalanilgan. Masalan:

Oqsoqollar qo‘ygan uloqni...

Ko‘k yoyiqdeb atalmish maydon

Bunda bo‘lar beltutish – kurash...

Otda uchar polvon yigitlar.

Bu misralarda qo‘llanilgan uloq, beltutish, maydon, kurash, polvon, kabi so‘zlarning yana bir xususiyati shundaki, ularda semantik tarmoqlanish kuzatiladi. Bu esa badiiy nutqda uslubiy vazifadorlikni kengaytiradi. Masalan, “Bechorani unisi u yog‘ga, bunisi bu yog‘ga uloq qilib ketishdi” gapida “uloq” so‘zi o‘z ma’nosida qo‘llanilmagan. Matnda bu so‘z shaxsga nisbatan ishlatilgan bo‘lib, “masxara, ermak, ovora qilish” ma’nolarida qo‘llangan.

Tahlillarimiz shuni ko‘rsatadiki, tarixiy mavzudagi she’riy dostonlarda qaysi mavzu asosiy planda turgan bo‘lsa, shu mavzu doirasida oid so‘zlar qo‘llanib, turmush tarziga xoslikni ifodalash uchun xizmat qiladi. Masalan: “Shiroq” dostonida harbiy mavzudagi *qilich, qalqon, nayza, sarkarda, tig‘, Sovut, kamon, o‘ng qanot, so‘l qanot, harb, zarb, navkar, qo‘sish* atamalar, “Toj mahal” va “Gumbazdagi nur” dostonlarida me’morchilikka oid *gumbaz, zarhal, minora, madrasa, maqbara, imorat, me’mor, naqqosh, gilkor, ganchkor, muhandis, koshintarosh, loy pishitish, g‘isht pishitish, bo‘yoq, poytesha, usta, poydevor* kabi leksemalarning qo‘llanilishini buning

¹ Ulug‘bek rasadxonasi joylashgan tepalik.

yorqin misolidir. “Hakim va ajal” va “Ming bir yog‘du” dostonida ham turli ilmiy atamalar keng qo‘llanganligi kuzatildi.

Kuzatishlarimiz asosida shu aniqlandiki, tarixiy mavzudagi dostonlarda tarixiy so‘zlardan o‘rinli foydalanish quyidagilar uchun xizmat qiladi:

- 1) tasvir qilinayotgan tarixiy voqelikni aniq va tiniq ko‘rsatib berishga yordamlashadi;
- 2) o‘quvchiga tarixning ma’lum bir davrida yashagan xalq vakillari tomonidan qo‘llangan asbob-uskunalar, jihozlar to‘g‘risida tasavvur hosil qilish imkonini beradi;
- 3) asar mazmunini ochib berish, poetik rang-baranglikni ta’minalash vazifalarini bajaradi.

Iqtiboslar/ References/ Kaynaklar/ Сноски:

1. Jo‘rayev I. Sirojiddin Alixon Orzuning “Charog‘i hidoyat” izohli lug‘atida toponimlarning berilishi // O‘zbek tili taraqqiyoti va xalqaro hamkorlik masalalari. Xalqaro konferensiya materiallari. – Toshkent, 2022. – B. 48–55.
2. Mengliyev B. Hozirgi o‘zbek tili (kirish, fonetik sath, leksik-semantik sath) /darslik. – Toshkent: Tafakkur bo‘stoni, 2018. – 200 b.
3. Курбатов Х.Р. Татарская лингвистическая стилистика и поэтика. – М.: Наука, 1978. – 218 с.
4. Мирзаев М., Усмонов С., Расулов И. Ўзбек тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1970. – 162 б.
5. Навоий асарлари луғати. – Тошкент: F.Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – 784 б.
6. Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1988. – 288 б.
7. Тўйчибоев Б., Қозоқбой Қашқирли. Зоминнинг тил қомуси. – Тошкент: Akademnashr, 2012. – 400 б.
8. Тўра Сулаймон. Сенсиз ёлғиз ғарип бўлдим. – Тошкент: Мовароуннахр нашриёти, 2013. – 311 б.
9. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. – М.: Рус тили, 1981. – 631 б.

**BULLETIN OF THE
INTERNATIONAL JOURNAL
“TURKOLOGICAL
RESEARCH”**

In order to implement programs and projects developed to accelerate the relationship envisaged at the summit of the Organization of Turkic States held in Samarkand, as well as to coordinate and highlight the research work carried out in the field of Turkic studies, the International Journal “Turkological Research” at Samarkand State University named after Sharof Rashidov passed the state registration. The journal is intended to publish the results of scientific research in the field of Turkic languages and dialects, the history of linguistic and literary relations of the Turkic peoples of Central Asia, the socio-cultural field. There are such headings as a young researcher, memory and our anniversaries. Articles written in Uzbek, Turkish, Russian, English and all Turkic languages are accepted.

The scientific journal is based on the decision of the Higher Attestation Commission of the Ministry of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan dated May 8, 2024 and numbered 354/5; It is included in the list of scientific publications that are recommended for candidates to receive the Doctor of Philosophy (PhD) and Doctor of Science (DSc) academic degrees in the fields of history and philology to publish their scientific results due to their theses.



**THE JOURNAL PUBLISHES ARTICLES
IN THE FOLLOWING AREAS:**

- ✓ History of socio-cultural relations of the Turkic peoples;
- ✓ Research of the Turkic World;
- ✓ Dialectology of Turkic languages;
- ✓ Geopolitics of the Turkic World;
- ✓ Folklore Studies;
- ✓ Comparative Linguistics and Literary Studies;
- ✓ Literary Relations and Translation Studies.

CONTACT ADDRESS:

Mailing Address:

140104, University boulevard, 15,
Samarkand, Uzbekistan,
Research Institute of Turkology under
Samarkand State University named after
Sharof Rashidov

Phone:

+998 91 527 68 22
+998 99 596 35 69
+998 97 911 93 81

Telegram ID:

@turkologiya2025

Email:

turkologiya.samdu@gmail.com

Website:

<https://turkologiya.samdu.uz>



REQUIREMENTS FOR ARTICLES:

1. The article is presented on 8-10 pages;
 2. Article structure:
 1. The text of the article should be prepared in Times News Roman font, size 14, left: 3 cm, right: 1.5 cm, top and bottom: 2 cm; in A4 format in 1.15 intervals.
 2. The title of the article, surname, name and patronymic of the author (authors) are indicated in full and written in capital letters.
 3. Position, academic title, place of work (study), region, republic, telephone number, email address and ORCID number of the author (authors) are indicated in full.
 4. The abstract should consist of a brief content and importance of the article, results.
 5. At the beginning of each article, there should be an annotation in 2 other languages (optionally selected from Uzbek, English, Russian and Turkish) in addition to the language in which the article is written.
 6. The abstract should be no more than 120-150 words.
 7. At the bottom of the abstract, 7-10 keywords should be given that illuminate the content of the article.
 8. The article should be prepared in the following form:
 - a) Introduction;
 - b) Main part;
 - c) Results and Discussions;
 - d) Conclusions;
 - e) List of literature (References) – in alphabetical order;
 - f) Citations are given in brackets in the form of the author's surname - date of publication - page (Muminov, 2020: 25);
 - g) Figures, drawings, tables, diagrams are designated in Arabic numerals as "Figure". Signs or pointers are placed under the figure, in the next line, in the middle and highlighted in bold.
- The topic of the scientific article submitted by the author (or co-authors) must correspond to the journal's columns.
 - Articles can be submitted in Uzbek, English, Russian, and all other Turkic languages.
 - The author(s) are responsible for the scientific validity, reliability and plagiarism of the information and evidence presented in the article;
 - Articles will be considered. The journal publishes only articles recommended by experts;
 - Articles not requested will not be published and will not be returned to the authors;
 - Only 1 article of the author is published in 1 issue of the journal.

**“TURKOLOGIK
TADQIQOTLAR” XALQARO
JURNALINING AXBOROT
XATI**

Davlatimiz tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy-ma'rifiy, ilm-fanni rivojlantirishga qaratilgan siyosat, Turkiy Davlatlar Tashkilotining Samarcandda o'tkazilgan sammitida ko'zda tutilgan o'zaro aloqalarni jadallashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan dastur va loyihalarni amalga oshirish hamda turkologiya sohasida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarini muvofiqlashtirish va yoritish maqsadida Sharof Rashidov nomidagi Samarcand davlat universitetida “Turkologik tadqiqotlar” xalqaro jurnali ta'sis etildi. Jurnal turkiy til va shevalar, Markaziy Osiyo turkiy xalqlari lisoniy va adabiy aloqalari tarixi, ijtimoiy-madaniy sohalarda amalga oshirilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarining natijalarini e'lon qilishga mo'ljallangan. Jurnalda muharrir minbari, tadqiqotlar, ilmiy axborot, taqriz va e'tirof, ilmiy anjuman, yosh tadqiqotchi, xotira, yubilyarlarimiz kabi ruknlar mavjud. O'zbek, turk, rus, ingliz va barcha turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi.

Ilmiy jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAKning 2024-yil 8-maydagi 354/5-sonli rayosat qarori asosida tarix, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.



**JURNAL QUYIDAGI
YO'NALISHLARDAGI MAQOLALARINI
NASHR QILADI:**

- ✓ Turkiy xalqlarning ijtimoiy-madaniy aloqalari tarixi
- ✓ Turk dunyosi tadqiqotlari
- ✓ Turkiy tillar dialektologiya
- ✓ Folklorshunoslik
- ✓ Qiyyosiy tilshunoslik va adabiyotshunoshlik
- ✓ Adabiy aloqalar va tarjimashunoslik.

MUROJAAT UCHUN MANZIL:

Pochta manzili:

140104, Universitet xiyoboni, 15-uy,
Samarqand, O‘zbekiston,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand
davlat universiteti huzuridagi
Turkologiya ilmiy-tadqiqot instituti

Telefon:

+998 91 527 68 22
+998 99 596 35 69
+998 97 911 93 81

Telegram ID:


@turkologiya2025

Elektron pocha:

turkologiya.samdu@gmail.com

Veb-sayt:

<https://turkologiya.samdu.uz>



**MAQOLALARGA QO‘YILADIGAN
TALABLAR:**

- Maqola 8-10 sahifa hajmida taqdim etiladi;
- Maqolaning tarkibiy tuzilishi:

 1. Maqola matni Times News Roman shriftida, 14 kattalikda, chap: 3 sm, o‘ng: 1,5 sm, yuqori va quyi: 2 sm; 1,5 intervalda, A4 shaklida tayyorlanishi lozim.
 2. Maqola sarlavhasi, muallif(lar)ning familiyasi, ismi va otaismi to‘liq holatda katta harflar bilan yozilishi kerak.
 3. Muallif(lar)ning lavozimi, ilmiy unvoni, ish (o‘qish) joylari, viloyat, Respublika, telefon raqami, elektron pochta manzili va ORCID raqqami to‘liq keltirilishi kerak.
 4. Annotatsiya, maqolaning qisqacha mazmun va ahamiyati, natijalardan iborat bo‘lishi lozim.
 5. Har bir maqola boshida maqola yozilgan tildan tashqari yana 2 tilda (o‘zbek, ingliz, rus va turk tillaridan ixtiyoriy ravishda tanlanadi) annotatsiya bo‘lishi lozim.
 6. Annotatsiya 120-150 so‘zdan ko‘p bo‘lmagan shaklda bo‘lishi kerak.
 7. Annotatsiyaning pastki qismida maqola mazmunini yorituvchi 7-10 ta tayanch so‘zlar keltirilishi kerak.
 8. Maqola quydagi shaklda tayyorlanishi kerak:
 - a) Kirish (Introduction);
 - b) Asosiy qism (Main part);
 - c) Natijalar va muhokama (Results and Discussions);
 - d) Xulosalar (Conclusions);
 - e) Adabiyotlar (References) – alifbo tartibida keltiriladi;
 - f) Havola(snoskalar)lar qavsda muallif familiyasi – nashr sanasi – sahifasi (Mo‘minov, 2020: 25) shaklda keltiriladi;
 - g) Rasm, chizma, jadval, diagrammalar «Rasm» deb arab raqamlari bilan qayd etiladi. Belgi yoki ishoralar – rasm ostida, keyingi qatorda, o‘rtada joylashtiriladi va qoraytirilgan shrift bilan belgilanadi.
 - Muallif (yoki hammualliflar) tomonidan taqdim etilayotgan ilmiy maqola mavzusi jurnal ruknlariga mos kelishi shart.
 - Maqolalar o‘zbek, ingliz, rus va barcha turkiy tillarda taqdim etilishi mumkin.
 - Maqolada keltirilgan ma’lumot va dalillarning ilmiy asoslanganligi, ishonchli va ko‘chirmachilik holatlari uchun muallif(lar) mas’uldir;
 - Maqolalar ekspertiza qilinadi. Ekspertlar tomonidan tavsiya etilgan maqolalarga jurnalda chop etiladi;
 - Tavsiya etilmagan maqolalar chop etilmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi;
 - Jurnalning 1 ta sonida muallifning faqat 1 ta maqolasi chop etiladi.

**БЮЛЛЕТЕНЬ
МЕЖДУНАРОДНОГО ЖУРНАЛА
“ТУРКОЛОГИЧЕСКИЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ”**

В целях реализации программ и проектов, разработанных для ускорения взаимоотношений, предусмотренных на состоявшемся в Самарканде саммите Организации Тюркских Государств, а также координации и освещения научно-исследовательской работы, проводимой в области тюркологии, Международный журнал, Самаркандского государственного университета имени Шарофа Раширова, «Тюркологические исследования» прошел государственную регистрацию. Журнал предназначен для публикации результатов научно-исследовательских работ в области тюркских языков и диалектов, истории языковых и литературных связей тюркских народов Средней Азии, социокультурной области. Есть такие рубрики, как молодой исследователь, память и наши юбилеи. Принимаются статьи, написанные на узбекском, турецком, русском, английском и всех тюркских языках.

Научный журнал на основании решения Высшей аттестационной комиссии (ВАК) Министерства высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан от 8 мая 2024 года под номером 354/5; Он включен в перечень научных изданий, рекомендуемых кандидатам на получение ученых степеней доктора философии (PhD) и доктора наук (DSc) в области истории и филологии для публикации своих научных результатов по своим диссертациям.



**В ЖУРНАЛЕ ПУБЛИКУЮТСЯ
СТАТЬИ ПО СЛЕДУЮЩИМ
НАПРАВЛЕНИЯМ:**

- ✓ История социально-культурных отношений тюркских народов;
- ✓ Исследования тюркского мира;
- ✓ Диалектология тюркских языков;
- ✓ Геополитика тюркского мира;
- ✓ Изучение фольклора;
- ✓ Сравнительное языкознание и литературоведение;
- ✓ Литературные отношения и переводоведение.

КОНТАКТНЫЙ АДРЕС:

Почтовый адрес:

140104, Университетский бульвар,
15, город Самарканд, Узбекистан,
Научно-исследовательский
институт Тюркологии при
Самаркандском Государственном
Университете имени Шарофа
Рашидова

Телефон:

+998 91 527 68 22

+998 99 596 35 69

+998 97 911 93 81

Telegram ID:

@turkologiya2025

Электронная почта:

turkologiya.samdu@gmail.com

Веб-сайт:

<https://turkologiya.samdu.uz>



ТРЕБОВАНИЯ К СТАТЬЯМ:

- К публикации принимаются статьи объемом 8-10 страниц;
- Структура статьи:
 1. Текст статьи должен быть выполнен шрифтом Times News Roman, размером 14 пунктов, слева: 3 см, справа: 1,5 см, вверху и внизу: 2 см; с межстрочным интервалом 1,15, формат листа А4.
 2. Название статьи, фамилия, имя и отчество автора(ов) должны быть написаны заглавными буквами в полном регистре.
 3. Должность, ученое звание, места работы(учебы), регион, Республика, номер телефона, адрес электронной почты и ORCID-номер автора(ов) должны быть указаны полностью.
 4. Аннотация должна состоять из краткого содержания и важности статьи, результатов.
 5. В начале каждой статьи, помимо языка, на котором написана статья, должна быть аннотация на 2-х других языках (на выбор – узбекский, английский, русский и турецкий).
 6. Аннотация должна содержать не более 120-150 слов.
 7. Внизу аннотации должно быть 7-10 ключевых слов, освещдающих содержание статьи.
 8. Статья должна быть подготовлена в виде:
 - a) Вступление (Introduction);
 - b) Основная часть (Main part);
 - c) Результаты и обсуждение (Results and Discussions);
 - d) Выводы (Conclusions);
 - e) Литература (References) – в алфавитном порядке
 - f) Ссылка(сноски) приводится в скобках в виде фамилии автора – дата публикации – страница (Муминов, 2020: 25);
 - g) Рисунки, чертежи, таблицы, схемы нумеруются арабскими цифрами и обозначаются как «Рисунок». Знаки или указатели размещают под рисунком, в следующей строке, посередине и выделяют жирным шрифтом.
 - Тема научной статьи, представленной автором (или соавторами), должна соответствовать рубрикам журнала.
 - Статьи могут быть представлены на узбекском, английском, русском и всех других тюркских языках.
 - Автор(ы) несут ответственность за научную обоснованность, достоверность и plagiat информации и доказательств, представленных в статье;
 - Статьи рецензируются. В журнале публикуются только статьи, рекомендованные экспертами;
 - Нерекомендованные статьи не публикуются и не возвращаются авторам;

“TÜRKOLOJİ ARAŞTIRMALARI” DERGİSİNİN BÜLTENİ

Özbekistan Cumhuriyeti devletinin sosyal-eğitsimsel ve bilimsel gelişme politikasının başarılı şekilde uygulanmasına yardımcı olmak amacıyla, Semerkant'ta düzenlenen Türk Devletleri Teşkilatının zirvesinde öngörülen karşılıklı ilişkilerin hızlandırılması için geliştirilen program ve projeleri uygulamak, bilimsel çalışmaları koordine etmek, Türkoloji alanında yürütülen araştırma çalışmaları Şeraf Reşidov adına Semerkant Devlet Üniversitesi, Uluslararası “Türkoloji Araştırmaları” dergisini tescil etmiştir. Dergi, Türk dili ve lehçeleri, Orta Asya Türk topluluklarının dil ve edebiyat ilişkileri tarihi, sosyo-kültürel alanlardaki bilimsel ve araştırma çalışmalarının sonuçlarını yayımlamayı amaçlamaktadır. Dergimizde editör kürsüsü, araştırma, bilim dünyasından, inceleme ve tanıma, bilimsel konferans, genç araştırmacı, hatıra, yıldönümüleri gibi sütunlar yer almaktadır. Özbekçe, Türkçe, Rusça, İngilizce ve tüm Türk lehçelerinde yazılmış makaleler kabul edilmektedir.

Bilimsel dergi, Özbekistan Cumhuriyeti Yüksekögrenim, Bilim ve İnovasyon Bakanlığı'na bağlı Yüksek Kabul Komisyonu'nun 8 Mayıs 2024 tarihli ve 354/5 sayılı kararına esasen; tarih, filoloji alanlarında Felsefe Doktoru (Doktora) ve Bilim Doktoru (DSc) akademik derecesini almaya aday kişilerin tezleri dolayısıyla bilimsel sonuçlarını yayımlaması tavsiye edilen ilmî yayınlar listesine dâhil edilmiştir.



DERGİ AŞAĞIDAKİ ALANLarda MAKALELER YAYINLAMAKTADIR:

- ✓ Türk Dünyasındaki sosyo-kültürel ilişkilerin tarihi;
- ✓ Türk Dünyası araştırmaları;
- ✓ Türk Lehçeleri diyalektolojisi;
- ✓ Türk Dünyasının jeopolitiği;
- ✓ Folklor çalışmaları;
- ✓ Karşılaştırmalı dilbilim ve edebiyat çalışmaları;
- ✓ Edebi ilişkiler ve çeviri çalışmaları.

İLETİŞİM ADRESİ:

Posta adresi:

140104, Üniversite Bulvarı, 15,
Semerkant şehri, Özbekistan, Şeraf
Reşidov adına Semerkant Devlet
Üniversitesine bağlı Türkoloji
Araştırmaları Enstitüsü

Telefon:

+998 99 582 93 81

+998 97 911 93 81

Telegram ID:

@turkologiya2025

E-posta:

turkologiya.samdu@gmail.com

Internet sitesi:

<https://turkologiya.samdu.uz>



MAKALE YAZIM KURALLARI:

- Makale 8-10 sayfada sunulur;
- Makale'nin yapısı:
 1. Makale metni Times New Roman yazı tipinde, 14 punto büyülüklükte, sol kenarından 3 cm'lik, sağ kenarından 1,5 cm'lik, üst ve alt kenarından 2 cm'lik boşluk bırakılarak, tek sütün olarak, 1,15 satır aralığında, A4 boyutunda hazırlanmalıdır.
 2. Makalenin başlığı, yazar(lar)ın soyadı, adı ve baba adı tam olarak büyük harflerle yazılmalıdır.
 3. Yazar(lar)ın pozisyonu, akademik ünvanı, çalıştığı (öğrendiği) yer, bölgesi, cumhuriyeti, telefon numarası, e-posta adresi ve ORCID numarası eksiksiz olarak verilmeli.
 4. Özet, makalenin amacını, önemli bulgularını ve sonuçlarını içermelidir.
 5. Her makalenin başında, makalenin yazıldığı dilin yanı sıra 2 dilde de (isteğe bağlı olarak Özbekçe, İngilizce, Rusça ve Türkçe arasından seçilecek) açıklama bulunmalıdır.
 6. Özet, 120-150 sözcüğü geçmeyecek şekilde yazılmalıdır.
 7. Özetin alt kısmında makalenin içeriğini tanımlayacak en az 7, en fazla 10 anahtar kelimeye yer verilmelidir.
 8. Makale, aşağıdaki formatda hazırlanmalıdır:
 - a) Giriş (Introduction);
 - b) Ana bölüm (Main part);
 - c) Sonuçlar ve tartışma (Results and Discussions);
 - d) Sonuçlar (Conclusions);
 - e) Kaynakça (References) alfabetik olarak sıralanmalıdır;
 - f) Bağlantılar (dipnotlar) yazarın soyadı - yayın tarihi - sayfa şeklinde parantez içinde verilecektir (Muminov, 2020: 25);
 - g) Resim, çizim, tablo, diyagramlar "Resim" olarak Arap rakamları ile kaydedilir. İşaretler resmin altına, bir sonraki satıra, ortaya yerleştirilir ve koyu yazıılır.
- Yazarın (veya ortak yazarların) sunduğu bilimsel makalenin konusu dergi sütunlarıyla örtüşmelidir.
- Makaleler Özbekçe, İngilizce, Rusça ve tüm Türk dillerinde gönderilebilir.
- Makalede sunulan bilgi ve kanıtların bilimsel dayanağı, güvenilirliği ve intihalinden yazar(lar) sorumludur.
- Makaleler hakemli olacaktır. Dergide sadece uzmanlar tarafından tavsiye edilen makaleler yayımlanır.
- Talep edilmeyen yazılar yayınlanmayacak ve yazarlarına iade edilmeyecektir.
- Derginin 1 sayısında yazarın sadece 1 makalesi yer alacaktır.

TURKOLOGIK TADQIQOTLAR

XALQARO ILMIY JURNALI

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL OF “TURKOLOGICAL
RESEARCH”**

**ULUSLARARASI “TÜRKOLOJİ ARAŞTIRMALARI” BİLİMSEL
DERGİSİ**

**МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ “ТЮРКОЛОГИЧЕСКИЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ”**

Muharrir:

Musahhih va texnik muharrir:

Norxo‘ja Choriyev

Rahmatulloh Shokirov

2025-yil 22-martda tahririy-nashriyot bo‘limiga qabul qilindi.

2025-yil 25-martda original-maketdan bosishga ruxsat etildi.

Qog‘oz bichimi 60x84.1/16. «Times New Roman» garniturası.

Offset qog‘ozi. Shartli bosma tabog‘i –12.5.

Adadi 10 nusxa. Buyurtma № 215

SamDU tahririy-nashriyot bo‘limi bosmaxonasida chop etildi.

140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15.



ISSN 2992-9229

A standard one-dimensional barcode is positioned in the center of the white rectangular area. It consists of vertical black bars of varying widths on a white background.

9 772992 922004